



ARTICLE INFO

Received: 26th October 2022
Accepted: 01st November 2022
Online: 04th November 2022

KEY WORDS

Raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, turizm raqamlashtirish, dinamik sayohat paketlari. elektron to'lovlar, elektron tijorat, elektron biznes.

Kirish. Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'molning barcha sohalarida raqamli kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish hamda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha xizmatlar iste'molchilariga, maishiy xo'jaliklarga, davlat organlariga, faoliyati muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan turizm sohasidagi firmalarga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki va tashqi muhitning mos omillarini shakllantirishda turizm sohasidagi korxonalar o'z faoliyatini raqamli rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizmni rivojlantirishning nazariy va umumiy iqtisodiy muammolarini V.Azar, A.Aleksandrova, V.Kvartalnov, N.Zayseva,

TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI

¹O'zbekxonov Saidazimxon Vafaxon o'g'li,

²Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta og'li,

³Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li

^{1,2,3}Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7284312>

ABSTRACT

Turizm sohasidagi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda unga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar va ushbu tadqiqotning ahamiyati uni shakllantirishning shart-sharoitlari va omillari shuningdek, turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishi uchun muhim masalalar ko'rib chiqilgan.

D.Ismayev, M.Birjakov, V.Senin va boshqalar o'z asarlarida tahlil qilishgan. Shuningdek O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalari N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, A.Taksanov, M.Po'latov, M.Pardayev, R.Atabayev, I.Tuxliyev, M.Muxammedov, M.Alimova, Z.Adilova, M.Aliyeva, D.Aslanova, O.Hamidov, B.To'rayev, Usmanova B.Safarov, Z.Usmanova, Z.Muxamedova kabi iqtisodchi olimlar o'zlarining ko'p yillik tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Asosiy qism. Turizmni rivojlantirish darajasi mamlakat va ushbu mamlakat hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm sohasida ayniqsa innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm rentabelligi va rivojlanish dinamikasi bo'yicha xususan, neft va gazni qazib olish va qayta ishlashdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Turizm ko'plab davlatlarning milliy iqtisodiyotlari uchun iqtisodiy faoliyatning



eng muhim sohasidir. Bundan tashqari, turizm axborotga boy sohalardan biri hisoblanib, unda axborotni yig'ish, uzatish, tahlil qilish va saqlash sohaning barcha darajalarida qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyotni turizm sohasida shakllantirish sharoitida turizm faoliyatini axborot bilan ta'minlash uni rivojlantirishning eng muhim omili bo'lib hisoblanadi. Turizm faoliyatida xizmatlar ishlab chiqarishning asosiy omili xizmatlarning potentsial iste'molchisi olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar hamda turistik faoliyatning yakuniy natijasi iste'molchining sayohat paytida olgan taassurotidir.

Iqtisodiyotning drayveri bo'lgan turizm sohasi hamda rekreatsion faoliyat doirasida turizm sektorini raqamli rivojlantirish rolini aniqlashga tadbir etilgan yondashuvlarni o'zgartirishni yanada o'rganish uchun biz nafaqat turizm mahsulotini shakllantirish va ilgari surish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatni tushunamiz, balki, turizm infratuzilmasi faoliyati bilan bog'liq boshqa sohalarni ham e'tiborga olishimiz lozim

Raqamli iqtisodiyot barcha darajadagi iqtisodiy tizimlarda sodir bo'ladigan barcha biznes- jarayonlarning integratsiyalashuviga asoslanadi hamda axborot komponentiga alohida ahamiyat beriladi shuningdek, integratsiyalashgan global tizimda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot- kommunikatsiya muhiti, axborot tizimlari hamda xizmatlarga yangi talablar shakllantirilmoqda. Yagona axborot makonini shakllantirish aholining ijtimoiy-iqtisodiy sohaga yo'naltirilgan sifatli va ishonchli axborot olishga bo'lgan

ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga binoan 2022-2026 yilgacha bo'lgan davrda "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli ustuvor yo'nalishi 16 ta maqsadni o'z ichiga olgan. O'zbekiston O'rta Osiyo respubliklari o'rtasida eng yirik sayyohlik salohiyatiga ega. Yurtimiz o'zining tarixiy maskanlari, Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishini o'ziga aks ettiradigan ko'p asrlik tarixiy va madaniy 7 mingdan ziyod tarixiy-arxitektura yodgorliklari bo'lgan boy merosga egaligi jihatidan dunyoda yetakchi o'rin tutadi. O'zbekistonning 2030 yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasida maqsadli vazifalar qatorida "turizmning ijtimoiy rolini oshirish va joriy qilish, shu jumladan, ijtimoiy, davolash-sog'lomlashtirish (rekreasion), bolalar va yoshlar turizmni rivojlantirish..." yo'llari belgilangan. Ushbu vazifalarning bajarilishi rekreasiyadan foydalanishning mexanizmlarini takomillashtirish, turistik-rekreasion mintaqalar, klasterlar barpo etish hamda aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida O'zbekistonda turistik-rekreasion xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab iqtisodiy faoliyat turlarini xususan, turizmni infratuzilma bilan ta'minlashni sezilarli darajada o'zgartiradi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning asosi katta hajmdagi axborotni qayta ishlash tashkil qiladi. Axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning yuqori texnologiyali tizimi



alohida ahamiyatga ega. Potensial sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarni bron qilish, hudud bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot, reytinglarni taqdim etish kabi keng funksiyalarni ta'minlovchi mobil texnologiyalarni rivojlantirish lozim bo'ladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot turizm korxonalarining potentsial yangi shakllarini yaratish imkoniyatini ishlab chiqadi hamda kadrlar infratuzilmasi sohasida ham o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy hayotimiz va sayyohlik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda, jahon turizmi sohasida yagona axborot makonini

shakllantirilmoqda, axborot bilan ta'minlash va turizmni boshqarish tizimi ishlab chiqilmoqda.

Xulosa. Turizmni rivojlantirish darajasi mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm ko'plab davlatlarning milliy iqtisodiyotlari uchun iqtisodiy faoliyatning eng muhim sohasidir. Shuningdek, turizm axborotga boy soha bo'lib, unda axborotni yig'ish, uzatish, tahlil qilish hamda saqlash sohaning barcha darajalarida qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish turizm faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, unda eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faol qo'llash lozim bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598-son "To'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. M.T. Aliyeva. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. -T.: TDIU, 2007.
4. M.M. Irmatov, Aliyeva M.T.va boshqalar.Turizmni rejalashtirish.T.: Moliya, 2005.
5. G.Xdirova, F.Raxmatullayev " Mintaqaviy turizm" Buxoro -2020 .
6. R, Xayitboyev, R. Amriddinova –"turizmning maxsus turlari" uslubiy qo'llanma Samarqand-2008 y